

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MEHNAT
TARBIYASINI MILLIY QADRIYATLAR VA ILG'OR XALQ
AN'ANALARI ASOSIDA SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL
MODELI**

Rapikov Ibrayimjon G'aniyevich

Namangan Davlat Universiteti "Maktabgacha va Boshlang'ich ta'lim" kafedrası v.b.
dotsenti, PhD

rapikovibrayimjon@gmail.com

Annotatsiya: mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida mehnat tarbiyasi orqali tejamkorlik va tadbirkorlikni shakllantirish masalasi ko'rib chiqilgan. Unda xalq milliy an'analari asosida ishlab chiqilgan konseptual model asosida bolalarning ijtimoiy foydali mehnatga bo'lgan munosabati, mehnatga jalb etish shakllari va usullari, uydagi mehnat, o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish mehnati turlari asosida tarbiyalash imkoniyatlari ochib beriladi. Shuningdek, oila, mahalla va maktab hamkorligida bolalarni milliy mehnat an'analari ruhida tarbiyalash, ularni jamiyat uchun foydali mehnatga yo'naltirishning samarali yo'llari tahlil qilinadi. Muallif kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning tejamkorlik va tadbirkorlik sifatlarini rivojlantirishda etnopedagogik yondashuvlarning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: mehnat, tarbiya, tejamkorlik, tadbirkorlik, boshlang'ich sinf, o'quvchilar, milliy an'analar, etnopedagogika, oila tarbiyasi, mahalla, mehnat, maktabdan tashqari ta'lim.

**КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ
ТРУДОВОГО ВОСПИТАНИЯ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ НА**

ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ И ПЕРЕДОВЫХ НАРОДНЫХ ТРАДИЦИЙ

Рапиков Ибраимжон Ганиевич

Наманганский государственный университет, кафедра «Дошкольное и начальное образование» и др. доцент, к.ф.-м.н.

rapikovibrayimjon@gmail.com

***Аннотация:** в статье рассматривается проблема воспитания бережливости и предприимчивости у учащихся начальной школы посредством трудового воспитания. Раскрываются возможности воспитания детей на основе концептуальной модели, разработанной на основе национальных традиций, отношения детей к общественно полезному труду, форм и методов привлечения их к труду, домашнему хозяйству, видам труда по самообслуживанию. Также будут проанализированы эффективные способы воспитания детей в духе национальных трудовых традиций и ориентации их на полезный для общества труд во взаимодействии с семьей, двором и школой. Автор подчеркивает важность этнопедагогических подходов в формировании бережливости и предприимчивости у учащихся младших классов.*

***Ключевые слова:** труд, воспитание, бережливость, предпринимательство, начальная школа, учащиеся, национальные традиции, этнопедагогика, семейное воспитание, соседство, труд, внешкольное образование.*

**CONCEPTUAL MODEL OF FORMATION OF LABOR
EDUCATION IN PRIMARY GRADE STUDENTS ON THE BASIS OF
NATIONAL VALUES AND ADVANCED FOLK TRADITIONS**

Rapikov Ibrayimjon Ganievich

Acting Associate Professor of the Department of “Preschool and Primary Education” of
Namangan State University, PhD

rapikoviibrayimjon@gmail.com

Annotation: *this article considers the issue of forming thrift and entrepreneurship in primary school students through labor education. It reveals the attitude of children to socially useful labor, forms and methods of attracting them to labor, possibilities of educating them on the basis of home labor, types of self-service labor, based on a conceptual model developed on the basis of national folk traditions. Also, effective ways of educating children in the spirit of national labor traditions and directing them to work useful for society are analyzed in cooperation between the family, neighborhood and school. The author emphasizes the importance of ethnopedagogical approaches in developing thrift and entrepreneurial qualities in primary school students.*

Keywords: *labor, education, thrift, entrepreneurship, primary school, students, national traditions, ethnopedagogy, family education, neighborhood, labor, extracurricular education.*

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mehnat tarbiyasi asosida tejamkorlik va tadbirkorlikni shakllantirish munosabatlarini aniqlashda ular mehnatda qatnashuvining quyidagi ichki va tashqi asoslarini ajratdik: a) mehnatning ijtimoiy foydaliligini, uni bajarish zarurligini anglash; b) jamoa oldidagi mas'uliyatni his

etish, unga foyda keltirish istagi; d) jazolanishdan qo'rqish; e) rag'bat olishga intilish; f) mehnatga qiziqish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mehnat tarbiyasi asosida tejamkorlik va tadbirkorlikning shakllantirishdagi asosiy turlari: 1) bilim ko'nikma va malakalarini tarkib topganligi tushunchalar 2) uydagi mehnat; 3) o'ziga o'zi xizmat qilish mehnatidan iborat. Bizningcha, boshlang'ich sinf o'quvchilarining mehnat tarbiyasi asosida shu mehnat turlariga munosabatini ifodalaydigan taxminiy ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat bo'ladi:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mehnat tarbiyasi asosida tejamkorlik va tadbirkorlikka oid qarashlari: a) mehnatni sevadi, tejamkorlik va tadbirkorlikka doir ishlarni faol bajaradi; b) hafsala bilan ishlaydi; d) o'zining shaxsiy foydasiga ishlaydi; e) nazorat ostida ishlaydi; f) iloji bo'lsa, bo'yin tovlashga harakat qiladi; g) mehnatni yoqtirmaydi, tejamkorlik va tadbirkorlik haqidagi tushunchalar yetarli emas.

2. Uydagi mehnatga munosabati: a) bajonidil ishlaydi; b) ota – onasining zo'rlashi bilan ishlaydi; d) mukofat olish uchun ishlaydi; e) ishlamaydi va ishdan vos kechadi.

Biz tadqiqotni amalga oshirish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida mehnat tarbiyasi asosida tejamkorlik va tadbirkorlikni shakllantirishda, maktabgacha tarbiya muassasalarida, oilada, boshlangich maktabda (darslarda, sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda), turar joy (mahalla)larda bosqichma-bosqich amalga oshirishning qulay jihatlarini belgiladik.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mehnat tarbiyasi asosida tejamkorlik va tadbirkorlikni shakllantirishning turli xildagi tarbiyaviy va maqsadga muvofiq unumli mehnatni ixtiyoriy ravishda amalga oshirish nazarda tutiladi. Bunda o'quvchi faoliyatining ikkita mustaqil turi – bilish (o'quv) va amaliy (mehnat)dan iborat yagona mehnat jarayonidir. Bilish – o'zgartirish vazifasi yagona maxsus o'quv fani asosida amalga oshadi va bu fan ham boshqa o'quv fanlari bilan birgalikda o'quvchining mehnatdagi faoliyatini, olgan bilimlari tejamkorlik va tadbirkorlik asosida sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida hamda o'ziga o'zi xizmat qilishda amaliy ravishda qo'llashga xizmat qiladi.

Maktabdagi integrativ mehnat tarbiyasi kursining asosiy komponentlari inson hayotiy faoliyatining quyidagi bo'limlari tarzida bo'ladi: 1) etnik-ijtimoiy predmetli sharoit; 2) oila- turmush tarzi; 3) sanoat-qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi va o'lka tabiatining atmosferasi. Birinchi komponent kichik maktab yoshidagi o'quvchida insonning mehnati va muayyan mehnat faoliyati jarayonida yaratilgan mehnat predmeti to'grisida, mehnat jarayonlarida qatnashuvchilarning ishlab chiqarishdagi munosabatlari tugrisida tasavvurlar hosil bo'lishini ta'minlashi darkor.

Ikkinchi komponentning mazmuniy va jarayonli tomonlari vositasida boshlang'ich sinflar o'quvchilarida turar joyni saqlash va unda xo'jalik qurilishlarini amalga oshirilishi hamda oila a'zolariga mehnat majburiyatlarining taqsimlanishi nazarda tutilmog'i lozim.

Birinchi “Etnik - ijtimoiy predmetli muhit” komponentining asosiy mazmuni quyidagicha: Mehnat tarbiyasining maktabgacha va boshlangich maktab



bosqichida bolalarda ayrim asboblardan (tesha, bolta, arra va hokazolardan) foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga alohida e'tibor beriladi. Bunda sezgi va harakat markazlari o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlaydigan qo'l mehnati yetakchi o'rin tutadi. Bu esa maktabgacha yoshdagi va kichik maktab yoshidagi bolalarning psixo-fiziologik o'sishi uchun juda muhim. Qo'l mehnati bolalarga turli narsalar yasash uchun ishlatiladigan ashyolar xossalarini o'rganish imkonini beradi. Mehnat jarayonida bolalarda chiziqni, vaznni va fazoviy munosabatlarni his etish tuyg'usi rivojlanadi. Shuningdek, ular ishonchli, tez va aniq harakat qilishidir.

Ikkinchi – “Oila, turmush tarzi” hadlarini mazmunining xususiyati maktabgacha yoshdagi bolalarni ham, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni ham gigiyena asoslari, kun tartibi, turmush va oilaviy munosabatlar madaniyati bilan tanishtirish imkonini beradi. Bunda elektrdan, isitish vositalaridan, gazdan, transportdan, uy-ro'zgor asboblardan foydalanish qoidalari to'rtida, oila iqtisodiyoti to'rtida dastlabki tushunchalar beriladi. Mana shu bosqichda boshlang'ich sinf o'quvchilarida mehnat tarbiyasi asosida tejamkorlik va tadbirkorlikni shakllantirishda o'quvchilar uy-ro'zg'ordagi turli ishlarni bajarishda amal qilinadigan xavfsizlik texnikasi qoidalarini anglab olishlariga jiddiy e'tibor berish, bolalar ovqat pishirish va oziq – ovqat, yeguliklarini saqlash qoidalari hamda malakalari bilan tanishtirish zarur. Bolalar ovqatlar tayyorlash texnologiyasi bilan tanishishdan tashqari, stolni bezash, to'g'ri ovqatlanish qoidalarini, shuningdek, oiladagi kichikintoylarga, kasallarga, qariyalarga yordamlashish va qarab turishning dastlabki asoslarini o'rganishlari ham ushbu bosqichda amalga oshiriladigan vazifalardandir.

Uchinchi – “Sanoat va qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi va o‘lka tabiati ekologiyasi” komponentining mazmunida boshlangich sinf o‘quvchilarini sanoat va qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining dastlabki bilim, ko‘nikma va malakalari bilan qurollantirish nazarda tutiladi. Unda o‘quvchilar o‘simlikshunoslik elementlari sanoatdagi va qishloq xo‘jaligidagi qo‘l mehnatini osonlashtiradigan turli qurollar, mexanizmlar va mashinalar ishlashining asoslari bilan tanishtiriladi.

Mehnat tarbiyasining biologik-ekologik asosi kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarga qishloq xo‘jalik ishlabXalq ogzaki ijodiyoti, etnik-ijtimoiy muhit kabi milliy sohalar, oilaviy turmush tarzi va sanoat-qishloq xo‘jalik milliy ishlab chiqarish tabiat ekologiyasi bilan birgalikda kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar mehnat tarbiyasining etnopedagogik tarbiyaviy imkoniyati mazmunini tanlashda tayanch manbalar bo‘ladi:

Quyi sinf o‘quvchilari mehnat tarbiyasida xalq milliy an‘analaridan foydalanish quyidagi asosiy psixologik- pedagogik prinsiplarga asoslanadi: a) o‘quvchilarning yosh kamolotini hisobga olish; 2) komplektlik; 3) muntazamlik; 4) izchillik; 5) vorisiylik.

Biz tadqiqotni amalga oshirish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mehnat tarbiyasi asosida tejamkorlik va tadbirkorlikni shakllantirishda , maktabgacha tarbiya muassasalarida, oilada, boshlangich maktabda (darslarda, sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda), turar joy (mahalla)larda bosqichma~bosqich amalga oshirishning qulay jihatlarini belgiladik.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mehnat tarbiyasining maktabdan tashqari sohasini ko‘rib chiqishda shuni ta’kidlash kerakki, xalq ta’limini qayta qurishning

hozirgi bosqichida tarbiyalovchi ijtimoiy institut bo'lmish umumiy o'rta ta'lim maktab muammolarini muvaffaqiyatli hal qilish va maqsadlariga erishishini ta'minlashi mumkin emas. Shuning uchun bolalar mehnat faoliyatining maktabdan tashqari va maktabdagi soxalari birlashtirilsa, mehnat maktabiniig yaxlit tuzilishi tashkil topadi. Shunga ko'ra barcha maktabdan tashqari bolalar muassasalari maktabdan tashqari ta'limning yagona tizimidan iborat bo'lishi kerak. Bu tizimning infratuzilmasi raqamli bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida kichik maktab yoshidagio'quvchilarning jismoniy, ma'naviy va iqtisodiy ehtiyojlari qondirilishini ta'minlashi lozim. Ana shu ta'minlash o'zaro bogliq komponentlar - unumli mehnat va ishlab chiqarish ta'limi orqali amalga oshirilishi zarur. Bu prinsipni qo'llash uchun esa o'quvchilarning rasmiy va norasmiy mehnat birlashmalarini tuzish, maktab ustaxonalaridagi, o'quvchilar kooperativlaridagi, oila pudratidagi, Yoshlar saroylari to'garaklari va texnik ijodkorlik stansiyalaridagi mehnatning unumli turlarini kengaytirish shart. Shu birlashmalarda bolalarning ijtimoiylashuvini, ya'ni mehnat faoliyatining qimmati va xarakterini chuqurroq bilib olishni ta'minlaydigan unumli mehnatni tashkil etish nazarda tutiladi.

Maktabdan tashqari mehnat tarbiyasining har xil shakllarida bolalar unumli mehnatini yo'lga qo'yish jamoaning ichki xususiyatlariga, bolalar mehnat faoliyati psixologiyasiga asoslanishi lozim. Oila tarbiyasi soxasidagi xalq milliy an'analarni taxlil qilish o'zbek mehnatkashlari ajablanarli mehnat qobiliyatiga ega bo'lganidan ishonarli dalolat beradi. Binobarin, o'zbek oilalaridagi bolalar xam kichik yoshlaridan boshlab mehnat muhitida bo'lgan, qo'llaridan keladigan ishlarga jalb qilingan. Oilalardagi bolalarga yoshligidan boshlab tabiatdagi, mehnatdagi, xalq xunarmandchiligining an'anaviy turlaridagi, kishilarning o'zaro

munosabatlari, xulqi va xatti-harakatlaridagi go'zalliklarni ko'rsatish va tushuntirishga aloxida e'tibor beriladi. Mehnatsevar xalq bolalarni kichikligidan chiroyli narsalar yaratishga jalb etish uchun harakat qiladi: qizlarga sifatli bichish va tikish, to'qish, gilamdo'zlik, gazlamalardan applikatsiyalar tayyorlash o'rgatiladi, o'gil bolalar esa kundalik turmushda kerakli oddiy buyumlarni, shuningdek, mehnat qurollarini yasashga jalb qilinadi. Kattaroq bolalarga mustaqil bajarish uchun topshiriqlar beriladi va asosan yaxshi, sifatli ishlash, tayyorlanadigan buyumning estetik tomoniga e'tibor berish talab qilinadi.

Hozirgi paytda ilg'or xalq milliy an'analari asosida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning tejamkorlik va tadbirkorlikni shakllantirishda uydagi mehnatini tashkil etish ularni ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilishning zarur shartidir. Ular oilaning farovonligi uchun uyda bajariladigan mehnatda muntazam qatnashib, topshiriqlarga mas'uliyatli munosabatda bo'lishni o'rganadilar, boshqalar uchun foydali ishlarni qilishga ham odatlanadilar.

Oila sharoitida mehnat faoliyatini yo'lga qo'yishda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga ota-onalar katga yordam beradilar. Ota-onalar, bolalarida mehnat haqida axloqiy tushuncha va tasavvurlarni hosil qiladilar, shu bilan birga oila va maktab ehtiyoji uchun qilinadigan mehnatda qatnashuvini doimiy kuzatadilar, o'gil va qizlarida ijtimoiy foydali ishlarga ijobiy munosabatni tarkib toptiradilar. Oilaning tarbiyaviy imkoniyati kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun beqiyos ahamiyatga ega. Chunki oila kishilar jamoasining o'ziga xos shakli sifatida oilada har kuni jamoa foydasi uchun qilinadigan kundalik ishlarning tabiiy ravishda o'rgatilishi va o'rganilishi jamiyat foydasi uchun jamoa faoliyatini keng tushunishga o'tishni ta'minlaydi. Bolalarni xalq milliy mehnat an'analari ruhida



tejamkor va tadbirkor etib tarbiyalash tajribasi mavjud etnopedagogik kuchlar majmuidan iborat mahalla ham ijtimoiy tarbiyaning o'ziga xos markazi sifatida boy va xilma-xil tarbiyaviy imkoniyatlarga ega.

Mahalla aholisi jamoasining barqaror ma'naviy-axloqiy muhiti bolalarning bo'sh vaqtini maqsadga muvofiq uyushtirish, ularni hamkorlikdagi mehnat faoliyati bo'yicha an'analar va maishiy taomillarga ega bo'lgan o'zaro aloqador oilalarning hududda uzoq vaqtlar jamoa bo'lib yashashi tufayli vujudga kelgan urf-odatlar haqidagi udumlariga rioya qilgan holda turli mehnat faoliyati sohalarida tejamkorlik va tadbirkorlikni egallash imkonini beradi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni mahallalardagi xalq milliy an'analaridan foydalanib, an'analar orqali tejamkor va tadbirkor qilib tarbiyalashning samaradorligi uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- turar joylarda soglom turmush tarzi, yuksak ma'naviy- axloqiy madaniyat, namunali turmush xatti-harakati masalalarini yoritadigan doimiy ishlovchi targ'ibotchilarni tashkil etish;
- ayrim oilalardagi an'anaviy barqaror mehnat harakatlarini, shuningdek, mehnat sulolalarining muvaffaqiyatlarini va ularning oila tarbiyasi borasidagi tejamkorlik va tadbirkorlikni shakllantirishdagi tajribalarini doimiy yoritib borish;
- yosh ota-onalarga bolalar psixologiyasi va pedagogikasining asoslarini o'rgatish markazlarini barpo qilish;

- ayrim ota-onalarning va butun oila jamoalarining qiziqishlarini, mehnatga mayllarini va qiz bolalarida mehnatsevarlikni tarbiyalash bo'yicha imkoniyatlarini aniqlash, tarbiyaviy jihatdan qimmatli tajribalarni iloji boricha keng yoyish;

- xalq milliy mehnat an'analari, urf-odatlari va marosimlarining bilimdonlarini tarbiya-targibot yo'sinidagi har xil tadbirlarni amalga oshirishga, bolalar va yoshlarni mehnatda, o'qitishda, tarbiyalash va kamol toptirish bo'yicha boy tejamkorlik va tadbirkorlarni, boy merosni o'rganish to'garaklarni boshqarishga, ularni jalb etish;

- oqsoqollarni, ishbilarmon onalarni, mehnatsevar obro'li oilalarning vakillarini taklif qilib "Odobnoma" dasturi bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish amaliyotini targib qilish;

- qadimiy xalq hunarmandchiligini tiklash maqsadida to'garaklar ochib, ularga mohir ustalarni, tashabbuskorlarni, qadimgi narsalar ishqibozlarini jalb qilish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilariga mehnat tarbiyasi asosida tejamkorlik va tadbirkorlikni shakllantirishda, pedagogik jamoalar, mahalla va ota-onalar qo'mitalarining xalq milliy an'analari, urf-odatlari va marosimlari asosida mehnat tarbiyasini jonlantirish masalalari bo'yicha qo'shma majlislarini o'tkazishni yo'lga qo'yish;

- kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'zlariga xos mayllarini, ko'nikma va malakalarini aniqlab, ularning mehnat faoliyatini muntazam tashkil etish, ularni mahalla

- jamoasining kundalik hayotida kerakli narsalar tayyorlanadigan hunarlar bilan shugullanishga qiziqtirish;

- kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda oila xo'jaligini yuritish uchun kerakli mehnat ko'nikma va malakalari tizimini tarkib toptirish;

- mehnatga doir turli to'garaklar tashkil qilib, mahallada yashaydigan bolalar va o'smirlarni ularga jalb qilish;

- maktab va oilada tarbiyalash jarayoni turar joylarda va o'qishdan bo'sh vaqtlarda ham uzluksiz davom etishi uchun "maktab oila-mahalla" hamkorlikdagi ishlar markazini tashkil qilish.

Shu tariqa mahallada amalga oshiriladigan boshlang'ich sinf o'quvchilarida mehnat tarbiyasi asosida tejamkorlik va tadbirkorlikni shakllantirish jarayonining mazmuniy va foydali jihatlarining birligi mazkur jarayon ilgor milliy mehnat an'analari, urf-odatlari va marosimlaridan foydalanishni xalq pedagogikasi mazmunining tarbiyaviy imkoniyatlari samaradorligi oshirilishini, boshlangich sinf o'quvchilari shaxsiga pedagogik ta'sir ko'rsatishning shakllari, metodlari va vositalari xillarini ko'paytirishni taqozo etadi.

Shunday qilib, xalq milliy an'analarga rioya qilish asosida ishlab chiqilgan mehnat jarayonining nazariy modeli kichik maktab yoshidagi o'quvchilar mehnat tarbiyasi asosida tejamkorlik va tadbirkorlikni shakllantirishning muhim omili bo'lib, u o'quvchini ta'limiy mehnatga, shuningdek, o'zi uchun mos unumli mehnatga jalb etishni ta'minlaydigan katta pedagogik imkoniyatga ega.

O'quvchilarda tejamkorlik va tadbirkorlikni shakllantirish muammosi muhim ijtimoiy-pedagogik hodisa ekanligi tadqiqot natijasida ilmiy jihatdan asoslab berildi. Mazkur jarayonda o'qituvchi, ota-onalar va oiladagi kattalarining o'zni beqiyos ekanligi o'z ifodasini topdi. Shu bois tadqiqotni olib borish davrida maktab va oila hamkorligi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida mehnat tarbiyasi asosida tejamkorlik va tadbirkorlikni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini o'rganish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot munosabatlarini rivojlantirish va ijtimoiy-huquqiy, demokratik davlat qurishda tejamkorlik va tadbirkorlikni shakllantirishning o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mehnat tarbiyasi asosida tejamkorlik va tadbirkorlikni shakllantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishda soha bo'yicha mintaq va xorijiy mamlakatlarda to'plangan tajribalarni o'rganish va jarayonning umumiy mohiyatini tahlil qilish kutilgan natijalarga erishishni kafolatlovchi mexanizmni ishlab chiqish imkonini beradi.

Maktab va oilada o'quvchilarda tejamkorlik va tadbirkorlikni shakllantirish jarayonini yuqori tashkil etish ularda nafaqat tejamkorlik va tadbirkorlik ko'nikmalarini, balki mehnat va ishlab chiqarish faoliyatiga mas'uliyat bilan yondashish, o'zgarar mehnatini qadrlash, halol mehnat qilish, mehnat samaradorligidan g'ururlanish kabi ma'naviy-ahloqiy sifatlarni ham tarbiyalaydi.

Oilada tejamkorlik va tadbirkorlikni shakllantirishning amalga oshirish uchun qulay muhit va quyidagi pedagogik imkoniyatlar mavjud bo'lishi lozim:

- ota-onalarning hunarmandchilik bilan shug'ullanishlari va o'z hunarlariga farzandlarini qiziqтира olishlari;
- ularning o'z hunarlarini farzandlariga o'rgatib borishga jiddiy e'tibor qaratishlari;
- ustoz-shogird an'alarining yaxshi yo'lga qo'yilganligi va bu sohada muayyan maktablarning mavjudligi;
- oila a'zolari o'zlari mashg'ul bo'lgan kasb-hunardan manfaatdor ekanliklari;
- farzandlarning oila an'analari va milliy qadriyatlarga sodiqligi.

O'zbekiston Respublikasida oilaviy tejamkorlik va tadbirkorlikning tobora rivojlanayotganligi o'z navbatida yoshlar, shu jumladan, o'quvchilar tomonidan tejamkorlik va tadbirkorlikni shakllantirishga doir oid nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishni taqozo etadi. O'quvchilarni ajdodlarning milliy hunarmandchilik va savdo munosabatlarini yo'lga qo'yishga oid boy meros bilan yaqindan tanishtirish ularning oilada tejamkor va tadbirkorlikni shakllantirishning ko'nikma va malakalarini o'zlashtirishda amaliy negiz bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida tejamkorlik va tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish ularning iqtisodiy tafakkurini erta bosqichdanoq rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu jarayon nafaqat bolalarning amaliy hayotga tayyorlanishiga, balki ularda mas'uliyat, tashabbuskorlik va mustaqil fikrlash kabi muhim sifatlarning rivojlanishiga ham asos bo'ladi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion metodlar hamda o'quv dasturlariga tejamkorlik va tadbirkorlik elementlarini integratsiyalash orqali ushbu maqsadlarga erishish mumkin. Shunday ekan, bu yo'nalishda olib borilayotgan izlanishlar va

amaliy ishlar mamlakatimizda yetuk, iqtisodiy bilimdon avlodni voyaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". – Toshkent, 1997.
3. G'ofurov N., Qodirova G. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. – T.: "Fan va texnologiya", 2021.
4. Shodmonqulova M. Tadbirkorlik asoslari. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2019.
5. Xasanboeva O. Boshlang'ich sinflarda iqtisodiy tarbiya berish asoslari. – T.: "O'qituvchi", 2016.
6. Mahkamova D. Yoshlar ma'naviyati va iqtisodiy madaniyat. – T.: "Ma'naviyat", 2018.
7. Alimov V. Pedagogik texnologiyalar. – T.: "Fan", 2020.
8. Soliyev A., Otaxo'jayev B. Tadbirkorlik asoslari. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2015.
9. OECD. (2019). Entrepreneurship Education at School in Europe. Eurydice Report.
10. UNESCO. (2017). Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. Paris: UNESCO.
11. Gibb, A. (2005). Towards the Entrepreneurial University. National Council for Graduate Entrepreneurship (NCGE).

12. Fayzullaeva M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtisodiy tafakkurni shakllantirish. – T.: “O‘qituvchi”, 2022.

13. Qodirova M., Normatova Z. Zamonaviy boshlang'ich ta'lim nazariyasi va amaliyoti. – T.: “Fan va texnologiya”, 2020.

14. Chigogidze, V., & Khoshtaria, M. (2020). Developing Entrepreneurial Skills in Primary Education: International Practices. Journal of Education and Learning.